


“TASDIQLAYMAN”
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

K.A. Sharipov
“12” mart 2025-y.

“TASDIQLAYMAN”
“O‘zmilliybank” AJ Boshqaruv raisi

A.K. Mirsoatov
“12” mart 2025-y.

**“KELAJAKKA QADAM” MARKAZI
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TARTIBI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Tartib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-61-son qaroriga muvofiq yoshlarning bandligini ta‘minlash, oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining mehnat bozoriga integratsiyasini kuchaytirish maqsadida amalga oshiriladigan “Kelajakka qadam” dasturi doirasida faoliyat yuritadigan “Kelajakka qadam” markazi (keyingi o‘rinlarda – Markaz deb yuritiladi) maqomini, asosiy vazifalari va funksiyalarini, huquqlarini tartibga soladi, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

1.2. Markaz O‘zbekiston Respublikasining barcha oliy ta’lim tashkilotlari (mulkchilik shaklidan qat’iy nazar) bitiruvchi talabalarining ishga joylashishiga ko‘maklashadi va bu borada O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik deb yuritiladi), oliy ta’lim tashkilotlari bilan bo‘sh ish o‘rinlariga bitiruvchi talabalarni ishga joylashga ko‘maklashish bo‘yicha hamkorlik qiladi.

1.3. Markaz o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, “O‘zmilliybank” AJning buyruq va farmoyishlariga, shuningdek ushbu Tartibga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

1.4. Markaz o‘z faoliyatida bevosita “O‘zmilliybank” AJga (keyingi o‘rinlarda – Bank deb yuritiladi) bo‘ysunadi va unga hisobot beradi.

2-bob. Markazning vazifalari va funksiyalari

2.1. Markazning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchi va quyi bosqich talabalari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish va tahlil qilish;
- o'z biznes g'oyalari amalga oshirish istagi bo'lgan bitiruvchi bosqich talabalarini aniqlash, ularga biznes ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha o'quv-treninglarni tashkil etish;
- bitiruvchi talabalar o'rtasida "Kelajakka qadam" dasturi doirasida Bank tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy xizmatlar paketini keng targ'ib qilish;
- turli sohalar bo'yicha biznes rejalar tuzish va boshqa kredit hujjatlari to'plamini tayyorlash bo'yicha maslahatlar berish;
- talabalarining tayyor loyihalarini moliyalashtirish uchun Bankning hududiy filiallariga yo'naltirish;
- oliy ta'lim sohalar bo'yicha ochiq tanlov komissiyalarida ishtirok etish;
- o'tkazilgan ochiq tanlov natijalariga ko'ra, individual ta'lim dasturlari (shu jumladan, xorijiy) bo'yicha umumlashgan hujjatlarni moliyalashtirish maqsadida Bankka taqdim etish.

2.2. Markaz unga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- bitiruvchi talabalar va ularning biznes g'oyalari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini yuritish, talabalarining bandligi va tadbirkorlik salohiyati bo'yicha tahlillar o'tkazish;
- infratuzilmaviy talabalar asosida tashkil etilgan Markaz bo'linmalari va oliy ta'lim tashkilotlari tarkibiy bo'linmalari o'rtasida axborot almashuvini ta'minlash;
- bitiruvchi bosqich talabalarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida o'quv-treninglar, seminarlar va mahorat darslarini tashkil etish, startup loyihalarini qo'llab-quvvatlash va yo'naltirish tizimini yo'lga qo'yish;
- "Kelajakka qadam" dasturi doirasida Bank tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy xizmatlar paketini bitiruvchi talabalar orasida keng targ'ib qilish, turli sohalar bo'yicha biznes rejalar tuzish va ularni moliyalashtirish uchun zarur kredit hujjatlari to'plamini tayyorlash bo'yicha maslahatlar berish;
- talabalar uchun amaliyotlar (stajirovkalar) va kasbiy malaka oshirish dasturlarini tashkil qilish, ish beruvchilarning ehtiyojlarini tahlil qilish va bandlik masalalarini hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- oliy ta'lim sohalar bo'yicha ochiq tanlovlar tashkil etilishini va g'oliblar uchun kasbga tayyorlash hamda ishga joylashtirish doirasidagi dasturlarini ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish;

- Markaz faoliyati va loyihalari haqida jamoatchilikni xabardor qilish, OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali Markaz tomonidan olib borilayotgan faoliyatlarini, tashabbuslarini va erishilgan natijalari yoritib borish bo'yicha axborot kampaniyalarini tashkil etish;

- oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va tahliliy materiallar tayyorlash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish hamda tegishli vazirlik va idoralarga yuborish.

3-bob. Markazning huquqlari

3.1. Markaz o'ziga yuklatilgan funksiyalar va vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

- hududlardagi barcha oliy ta'lim tashkilotlaridan bitiruvchi va quyi bosqich talabalari to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan shaklda muntazam ravishda olish;

- oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan Markazga ajratiladigan xonalarning jihozlanishi va saqlanishi bo'yicha muayyan talablarni belgilash;

- hududlardagi oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchi talabalari o'rtasida biznes g'oyalari va bandlik masalalari yuzasidan onlayn so'rovnomalar o'tkazish;

- xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, konferensiyalar, ko'rgazmalar, kasb yarmarkalari va boshqa tadbirlar o'tkazish, xorijiy markazlar va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

- oliy ta'lim sohalari kesimida salohiyatli ish beruvchilar tashkilotlar tomonidan oliy ma'lumotli mutaxassisliklarga qo'yiladigan talablarni shakllantirishda ishtirok etish;

- oliy ta'lim tashkilotlari va ish beruvchilardan ochiq tanlov natijasida kasbga tayyorlash va amaliyot o'tash dasturlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plamini talab qilish;

- Dastur doirasida erishilgan natijalarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda tegishli tartibda yoritib borish;

- Vazirlik hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga bitiruvchi yoshlarning bandligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritib borish;

- Markaz qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4-bob. Markaz faoliyatini tashkil etish

4.1. Markaz alohida yuridik shaxs tashkil etmagan holda Bank tarkibiy bo'linmasi sifatida tashkil qilinadi va Markaz uchun Bank tomonidan joy ajratiladi.

4.2. Markazga Bank rahbariyati tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi.

4.3. Markaz direktorining va barcha xodimlarining funksional vazifalari Bank tomonidan tasdiqlanadi.

4.4. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan oliy ta'lim tashkilotlarida Markazning hududiy bo'linmalari tashkil etiladi.

4.5. Hududiy bo'linmalar faoliyat yuritishi Vazirlik tomonidan tanlangan oliy ta'lim tashkilotlari binolarida oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan sifatli ta'mirlangan va to'liq jihozlangan maxsus xona ajratiladi.

Oliy ta'lim tashkiloti rektori hududiy bo'linma faoliyatining samarali olib borilishi uchun xonada Vazirlik tomonidan belgilangan talablarni to'liq va davomiy ta'minlanishi borasida mas'ul hisoblanadi.

4.6. Hududiy bo'linmalarda faoliyat olib borish uchun oliy ta'lim tashkilotlari va Bank mas'ul xodimlari biriktiriladi.

4.7. Markaz va barcha hududiy bo'linmalar faoliyati uchun zarur materiallar (tarqatma materiallar, bannerlar, kataloglar va hokazo) Bank tomonidan to'liq ta'minlanadi.

4.8. Hududlardagi barcha oliy ta'lim tashkilotlari o'zlarining bitiruvchi va quyi bosqich talabalari to'g'risida ma'lumotlarni doimiy ravishda Markazga taqdim etib boradi.

4.9. Xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash maqsadida Markaz xodimlari xorijiy konferensiyalar, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlarda ishtirok etadi. Bunday tadbirlar Markaz tomonidan ham tashkillashtiriladi.

4.10. Markaz bitiruvchilarni ishga joylashtirish yoki tadbirkorlikni boshlash bo'yicha xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi, ilg'or xalqaro tajribani o'rgangan holda O'zbekistonda qo'llash bo'yicha takliflar beradi.

4.11. Markaz va hududiy bo'linmalar faoliyati natijasi bo'yicha har chorakda ishga kirgan yoki tadbirkorlik faoliyatini boshlagan bitiruvchi talabalar to'g'risida ma'lumotlar umumlashtiriladi va tahlil qilinadi. Hududiy markazlar faoliyati Markaz tomonidan muvofiqlashtiriladi va faoliyat natijadorligi muntazam o'rganib boriladi va baholanadi. Ish samaradorligini oshirish bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqiladi.

4.12. Markaz faoliyati bilan bog‘liq muvaffaqiyatli loyihalar, tajribalar va keyslar, yaxshi samara bergan biznes-g‘oyalar, individual kasbiy amaliyot dasturlari bo‘yicha yaxshi natijalar Markazning keyingi faoliyatida keng qo‘llaniladi hamda ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib boriladi.

4.13. Markaz faoliyatining qonuniyligi va samaradorligi uchun Markaz direktori mas‘ul hisoblanadi.

5-bob. Biznes g‘oyadan tayyor loyihaga qadar hamrohlik qilish

5.1. Oliy ta‘lim tashkiloti rektori (direktori) bitiruvchi talabalar orasidan o‘z biznes g‘oyalarini amalga oshirish istagi bo‘lgan talabalarni aniqlash ishlarini tashkil qiladi.

5.2. Biznes qilish istagi bo‘lgan talabalar bilan Markaz bo‘linmalarida yuzma-yuz muloqotlar tashkil etiladi.

5.3. Bitiruvchi talabalar biznes ko‘nikmalarni shakllantirish, biznes reja ishlab chiqish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar bilan tanishtiriladi (1-ilova).

5.4. Biznes qilish istagi bo‘lgan har bir bitiruvchi talabaga biznes loyihani moliyalashtirish maqsadida oliy ta‘lim tashkiloti rektori (direktori) tomonidan tavsiya xati (1a-ilova) beriladi.

5.5. Tavsiya xatiga ega bo‘lgan talaba kreditlash uchun zarur bo‘lgan hujjatlar to‘plamini Bankning qulay filialiga taqdim etadi va bank filiali tomonidan kredit ajratish bo‘yicha ishlar olib boriladi.

5.6. Markazning hududiy bo‘linmalari bitiruvchi talabalarning moliyalashtirilgan loyihalari to‘g‘risida yig‘ma va tahliliy ma‘lumotlarni Markazga taqdim qilib boradi.

6-bob. Sohalar bo‘yicha ochiq tanlovlar o‘tkazish

6.1. “Kelajakka qadam” dasturi doirasida “Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish” yo‘nalishini amalga oshirishda Vazirlik har bir soha bo‘yicha ochiq tanlov tashkil etishga mas‘ul oliy ta‘lim tashkilotlari ro‘yxatini shakllantiradi va tanlov o‘tkazish jadvalini tasdiqlaydi.

Har bir mas‘ul oliy ta‘lim tashkilotlari rektori bir paytni o‘zida tanlov komissiyasi raisi hisoblanadi va komissiya tarkibiga sohaning yetakchi ish beruvchi tashkilotlarni rahbarlarini jalb qilishga mas‘ul hisoblanadi.

Bunda, sohalar bo‘yicha ochiq tanlovlar oliy ta‘lim tashkilotlari va ish beruvchi tashkilotlar bilan kelishilgan holda respublika oliy ta‘lim tashkilotlarining bakalavriat bosqichi (ustuvorlik asosida kunduzgi ta‘lim shakli)ning bitiruvchi va quyi (bitiruv kursidan oldingi) kurs talabalari o‘rtasida o‘tkaziladi.

6.2. Oliy ta‘lim tashkilotlarining bitiruvchi talabalari “Kelajakka qadam” dasturi doirasidagi “Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish” yo‘nalishi bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar bilan tanishtiriladi (2-ilova).

6.3. Tanlovlarni o'tkazish tartibi Vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

6.4. Vazirlik hamda Bank tomonidan talabalarning kasbiy amaliyotini moliyalashtirish mablag'lari ta'lim sohalari kesimida tasdiqlanadi. Talabgorlar soni va ish beruvchilarning talablariga asosan Vazirlik hamda Bank tomonidan taqsimotga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

6.5. Oliy ta'lim tashkiloti va ish beruvchi korxona (tashkilot) o'rtasida tanlovda ishtirok etish istagidagi talabalarni kelgusida ish bilan ta'minlanishini nazarda tutuvchi amaliyotlarini tashkil etish bo'yicha dastlabki shartnoma rasmiylashtiriladi.

6.6. Sohalar bo'yicha ochiq tanlov natijalariga ko'ra tanlov g'oliblari ko'rsatilgan holda tanlov natijalari bo'yicha bayonnoma rasmiylashtiriladi.

6.7. Ish beruvchining buyurtmasiga ko'ra tanlov g'olibi bo'lgan talaba tahsil olayotgan oliy ta'lim tashkiloti tomonidan individual kasbiy amaliyot dasturi ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Bunda:

moliyalashtiriladigan amaliyot davri ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalariga muvofiq bir oydan olti oygacha bo'lgan muddatni tashkil etadi;

tanlov g'olibi bo'lgan har bir talabaga bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravari miqdorida oylik to'lov tayinlanadi.

6.8. Tanlov g'oliblarini individual kasbiy amaliyot dasturlarini moliyalashtirish uchun mas'ul oliy ta'lim tashkiloti tomonidan Markazga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- muayyan talaba(lar)ning tanlovda g'olib bo'lganligi bo'yicha tanlov komissiyalari bayonnomasining nusxasi;

- har bir tanlov g'olibi uchun tasdiqlangan individual kasbiy amaliyot dasturi, uning summasi, davomiyligi va dastur yakunida uni ishga oladigan ish beruvchi tashkilot nomi;

- oliy ta'lim tashkiloti, ish beruvchi tashkilotlar va talabalar o'rtasida tuzilgan uch tomonlama kelishuvlar nusxasi.

Taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiyliги bo'yicha mas'uliyat oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ga yuklatiladi.

6.9. Oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan hujjatlar Markaz tomonidan ko'rib chiqiladi. O'rganish natijalariga ko'ra, zaruriy mablag'lar tegishli oliy ta'lim tashkilotlariga belgilangan tartibda o'tkazib boriladi.

6.10. Talabaning kasbiy amaliyoti doirasida ish beruvchi korxona (tashkilot)ning asoslangan taklifiga ko'ra xorijiy amaliyotni taqozo etgan taqdirda talaba xorijiy oliy ta'lim tashkilotlariga qisqa muddatli o'quv kurslariga yuborilishi mumkin. Bunda:

talabgordan xorijga yuborilayotgan davlat tili yoki ingliz tili bo'yicha tan olinadigan kamida B2 darajadagi sertifikat talab etiladi;

xorijiy amaliyotga yuborilayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotining xalqaro reytingdagi o'rniga ustuvorlik beriladi;

imzolangan uch tomonlama shartnomaga va individual kasbiy amaliyot dasturiga tomonlar tomonidan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritiladi.

6.11. Xorijiy amaliyotni moliyalashtirish uchun kiritilgan o'zgartirishlarni nazarda tutgan holda zaruriy hujjatlar to'plami, jumladan, xorijiy amaliyotni tashkil etish dasturi bo'yicha xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar Markazga taqdim etiladi.

Taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiyligi bo'yicha mas'uliyat oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ga yuklatiladi.

6.12. Taqdim etilgan hujjatlarga asosan Bank tomonidan xorijiy amaliyot dasturi va aviachipta xarajatlari uchun mablag'lar talaba tahsil olayotgan oliy ta'lim tashkilotiga o'tkazib beriladi.

6.13. Ish beruvchi tashkilot ochiq tanlov g'oliblari tomonidan individual kasbiy amaliyot dasturini muvaffaqiyatli tugatgan talabani ishga olishi lozim, aks holda individual kasbiy amaliyot dasturida o'qitish uchun Bank tomonidan ajratilgan pul mablag'lari summasi oliy ta'lim tashkilotiga qaytariladi, o'z navbatida, ushbu mablag' Bankka o'tkazib beriladi.

7-bob. Markaz faoliyatini moliyalashtirish

7.1. Markaz faoliyati Bank tomonidan moliyalashtiriladi.

7.2. Markaz xodimlarining ish haqi lavozim maoshi, mukofotlar, qo'shimcha haqlar, ustamalardan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlardan iborat bo'ladi va Bank tomonidan tasdiqlanadigan nizomga muvofiq to'lanadi.

8-bob. Yakunlovchi qoida

8.1. Markazni qayta tashkil etish va tugatish Bank tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.